

## DUNYOVİY VA İJTİMOİY DAVLAT TUSHUNCHASINING NAZARIY- HUQUQİY TAHLİLİ

Jabborov Muhammadjon Sunatullo o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12752013>

*Annotatsiya.* Dissertatsiyada yangi tahrirdagi konstitutsiyaga kiritilgan dunyoviy va ijtimoiy davlat tushunchasi: nazariy -huquqiy tahlili, ijtimoiy davlat funksiyalari va xalqaro tajriba, dunyoviy davlat tushunchasining nazariy va huquqiy tahlili, O'zbekistonda dunyoviy va ijtimoiy davlatni konstitutsiyaviy- huquqiy asoslari tahlili va muammolar o'zaro tahlil qilingan. Tadqiqot ishida ijtimoiy davlat tushunchasi uning shaklanishi va kelib chiqishi haqidagi turli olimlarning fikrlari , shuningdek O'zbekistonda dunyoviy va ijtimoiy sohadagi amalga oshiralayotgan chora-tadbirlarni takomillashtirish istiqbollari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, ijtimoiy, dunyoviy , konstitutsiya, qonun, xalqaro tajriba, demokratik, huquqiy, ekologik, davlat, tenglik, erkinlik.

### THEORETICAL AND LEGAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF SECULAR AND SOCIAL STATE

*Abstract.* In the dissertation, the concept of the secular and social state included in the new constitution: theoretical and legal analysis, the functions of the social state and international experience, the theoretical and legal analysis of the concept of the secular state, the analysis of the constitutional and legal foundations of the secular and social state in Uzbekistan and the mutual analysis of problems. The research work analyzes the opinions of various scientists about the concept of social state, its formation and origin, as well as the prospects for improving the measures implemented in the worldly and social spheres in Uzbekistan.

**Key words:** Uzbekistan, social, secular, constitution, law, international experience, democratic, legal, ecological, state, equality, freedom.

### ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ СВЕТСКОГО И СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА

*Аннотация.* В диссертации рассмотрено понятие светского и социального государства, включенное в новую конституцию: теоретико-правовой анализ, функции социального государства и международный опыт, теоретико-правовой анализ понятия светского государства, анализ конституционно-правовые основы светского и социального государства в Узбекистане и взаимный анализ проблем. В исследовательской работе анализируются мнения различных ученых о понятии социального государства, его формировании и происхождении, а также перспективах совершенствования мер,

реализуемых в мировой и социальной сферах в Узбекистане.

**Ключевые слова:** Узбекистан, социальное, светское, конституция, право, международный опыт, демократическое, правовое, экологическое, государство, равенство, свобода.

## Kirish qism

Bugungi kunda mamlakatimizda ham yangidan yangi o‘zgarishlar bo‘lib o‘tayotgan davrda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Konstitutsiyamizda “O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” degan tamoyilni mustahkamlash g‘oyasini ilgari surdi. Shuningdek, davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasida bu g‘oya yanada mustahkamlanib, unda ustovor yo’nalish qilib ijtimoiy davlatni barpo etishni belgilab berdi. Aslida ham, ijtimoiy davlat – bu barcha fuqarolarning munosib hayot darajasiniga erishish, ijtimoiy tenglik va tafovutlarni yumshatish va kam-ta’milangan oilalarga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanib, moddiy boyliklarni adolatli taqsimlashga qaratilgan davlat modeli. Ayni ushbu model hozirgi vaqtida Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvetsiya, Italiya, Belgiya, Daniya, Finlandiya, Germaniya, Portugaliya, Ispaniya, Avstriya, Gretsya, Yaponiya, Niderlandiya, Shveysariya, AQSh kabi davlatlarda qo’llanilmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda ,“Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir” ya’ni a) *ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur bo‘lgan iste’mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo‘yilishini nazarda tutadi;* b) *shuningdek, ijtimoiy davlat shaxs va uning oilasini munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi, bandlikni ta’minalash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag‘allikni qisqartirishni talab qiladi;* c) *ishsizlikdan himoyalanish, kafolatlangan sifatli ta’lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash ham ijtimoiy davlatning asosiy vazifasidir;* d) *yashash uchun zarur resurslar – ichimlik suvi, tabiiy gaz, elektr energiyasi, transport va boshqa qulayliklar bilan ta’minalish, majburiy mehnatga ta’qiq qo‘yish ham ijtimoiy davlatda muhim ahamiyat kasb etadi;* f) eng muhimi, ijtimoiy davlatda hech kim e’tibordan chetda qolmaydi, o‘z muammolari bilan yolg‘iz tashlab qo‘ymaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”<sup>1</sup> nomli kitobida “O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” tamoyilining ayni ustuvor yo‘nalishlari barafsil ifoda etgan. Xususan, mamlakatimiz aholisi uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma, malakali tibbiy xizmat, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya va sog‘lom ekologik muhit yaratish, iqtisodiyotni mustahkamlash, ijtimoiy, huquqiy, ekologik va boshqa sohalarni rivojlantirish istiqbollari ko‘rsatib berilgan.

*Shu ma’noda*, mamlakatimizda 2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi inson qadrini ulug‘lashga xizmat qiladigan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yoqlab ovoz bergani tahsinga sazovor. Chunki davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “**inson qadri – mamlakatning har bir fuqarosi uchun tinch va xavfsiz hayotni, fundamental huquq va erkinliklar, malakali tibbiy xizmat, sifatli ta’lim, kuchli va manzilli ijtimoiy himoya hamda sog‘lom ekologik muhit ta’milanishini, munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilmaning bosqichma-bosqich yaratilishini anglatadi**”.

### Asosiy qism

Ijtimoiy davlat – qat’iy bozor iqtisodiyoti, turli pandemiya va epidemiyalar sharoitida o‘z fuqarolariga muayyan minimal farovonlikni kafolatlaydigan davlat. Ijtimoiy davlatning birinchi o‘rindagi maqsadi ham shaxs uchun eng yuqori darajada rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlar, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklarini hamda davlat boshqaruvini takomillashtirishning huquqiy kafolatini ta’minalashdir.

Yana bir asosiy dasturilamal hujjat – “O‘zbekiston-2030” strategiyasida ham ijtimoiy himoya masalasiga hamda insoning huquqlarini kafolatlash borasida alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu dasturiyalan hujjatda xalqning talablariga va xalqaro hujjatlarga to‘liq javob beradigan ijtimoiy himoya kompleks tizimini tashkil etish asosiy g‘oyalardan biri etib belgilangan hamda uning 100 ta ustuvor maqsadi barqaror rivojlanish bo‘yicha O‘zbekiston milliy maqsad va vazifalarining barchasini to‘liq qamrab olgan.

Bunda, **birinchidan**, professional ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish orqali ijtimoiy himoya qilish tizimi bilan muhtojlarning barchasi to‘liq qamrab olinadi. Buning uchun kam ta’milangan oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko‘rsatish maqsadida “Ijtimoiy himoya yagona reestri” axborot tizimi yaratildi.

**Ikkinchidan**, nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida har yili bir milliondan ortiq nuroniy uchun tarixiy shaharlar, qadimiy obidalar, ziyoratgohlar va

yurtimizning so‘lim go‘salariga sayohatlar tashkil etilmoqda. Nuroniyarlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari doirasida amalga oshiriladigan tadbirlar qamrovi kamida 30 foizgacha ortishi nazarda tutilgan.

**Uchinchidan**, mehnatga layoqatli aholini, shu jumladan, yoshlari va nogironligi bo‘lgan shaxslarning barqaror va samarali bandligini ta’minlash orqali ishsizlik darajasini 7 foizgacha tushirish mo‘ljallanmoqda.

**To‘rtinchidan**, ayollar uchun homiladorlik va tug‘ish, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, ish beruvchi yuridik shaxs tugatilganda va tugatilayotgan korxonaning to‘lovlar uchun mablag‘lari mavjud bo‘lmagan hollarda ishdan bo‘shatish nafaqalari, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar oqibatidagi sug‘urta to‘lovlarini kafolatlangan ijtimoiy sug‘urta tizimi orqali amalga oshirish tashkil etilyapti.

Shu bilan birga, keng jamoatchilik muhokamasiga chiqarilgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” gi Prezident farmoni loyihasi ana shu ko‘lamdor islohotlarni 2024-yilda samarali amalga oshirishga qaratilgani bilan ahamiyat kasb etadi. Hujjatda xalqimizning kundalik hayotida ijobjiy o‘zgarishlarga erishish bo‘yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, jumladan, xaqi manfaatlariga yo‘naltirilgan boshqaruvni yanada takomillashtirish istiqbollariga oid dolzarb vazifalar ko‘zda tutilgani diqqatga loyiqdir.

Ijtimoiy davlatning muhim bir tomoni nima deganda, muxtaram Prezidentimiz aytgan shunday jumlalar bilan davom etirmoqchi bo‘ldim “**Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralar xalqimizga xizmat qilishi kerak**” degan tamoyil davlatdagi ijtimoiy adolatning muhim mezoni sifatida amaliyatga tadbiq etilishi hisoblanadi.

O‘zbekiston Mustaqilikka erishgandan so‘ng, dunyoviy davlat sifatida, din davlatdan ajartilgan bo‘lsa-da, ammo dindor vakillar jamiyatdan ajratilmaganligi bois barcha dinlar , shuningdek , islom diniga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgaradi. Davlat va diniy tashkilotlar o‘rtasidagi munosabat to‘g‘ri yo‘lga qo‘yildi, ya’ni vijdon erkinligiga e’tibor qaratildi. Dinga ishonuvchilar va ishonmaydigan o‘rtasidagi munosabatlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yildi. Bu xalqaro hujjatlarda shuningdek, BMT ustavi hamda 1948-yilda qabul qilingan inson huquqlari umumiyligi deklaratsiyasiga mos tushadi. Qisqa qilib aytganda , din dunyoviy davlat tizimi bilan nafaqat murosa qilish , balki umummiliy taraqqiyot yo‘lida , u bilan samarali hamkorlik bo‘lishi mumkin.

### Natija va muhokamalar

Xususan Konstitutsiyamizda bu masalalar o‘z yechimini topgan va u dunyodagi rivojlangan davatlardagi huquqiy-me’yoriy talablarga to‘la-to’kis javob beradi. Har qanday dinga e’tiqod qiluvchi hech qanday dinga e’tiqod qilmaydigan kishilar uchun bir xildagi talablar

qo‘yilishini ta’minlovchi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 35-moddasida, jumladan shunday norma berib o’tilgan: “**Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatnadi. Har kim xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi**”.

Mazkur qoidada dunyoviy davlatning dinga munosabatini ifodalaydigan asosiy tamoyillar o‘z ifodasini topgan:

- dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish;
- diniy e’tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta’qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik;
- ma’naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo‘llarini izlash zarurati;
- dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini e’tirof etish.

Xususan, O‘zbekiston davlatining dunyoviylik, diniy bag‘rikenglik, barcha dinlarga bir xilda munosabat bo‘lish siyosati “**vijdon erkinligi**” tamoyiliga asoslanadi. O‘zbekistonda vijdon erkinligi konstitutsiya va qonunlar asosida mustahkamlab qo‘yildi. Shuningdek mustaqillikning ilk kunlarida 1991-yilda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Ushbu qonunga 1993-yil qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritilib, 1998-yilga qadar amal qilib kelgan. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunini tubdan o‘zgartirish zarurati tug‘ildi va 1998-yil 1-may kuni qayta qonun qabul qilindi. Shuningdek, Qonunning 5-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e’tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.” Qaytadan yangi tahrirda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunini 06.07.2021-yil O‘RQ-699-son qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning 5-moddasida “Vijdon erkinligini ta’minlashda dunyoviy davlat qurilishini saqlab qolish” hamda 7-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar va davlat organlarining faoliyati o‘zaro aralashmaslik asosida amalga oshiriladi” degan normalar ham bu – dunyoviy davlatning yorqin ko‘rinishi bo‘la oladi.

Hozir vaqtida dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari u yoki bu darajada de faktotijimoiy davlatlar hisoblanadi. O‘zbekiston Konstitutsiyasida ham ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolat prinsiplari amalda ta’minlash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan besh yillikdagi Harakatlar strategiyasi barcha islohotlar ustuvor yo‘nalishlarni bajarishga asos bo‘lgan muhim hujjat sifatida tarixidan joy oldi. Parlamentimiz tomonidan so‘nggi besh

yilda aynan inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga, uning ijtimoiy ehtiyojlariiga daxldor 158 ta qonun qabul qilindi, 14 ta xalqaro hujjat ratifikatsiya bo‘lib, 5 ta xalqaro hujjatga qo‘schildik. 2021-yil 1-apreldan boshlab kam ta’minlanganlarni ijtimoiy himoya qilishning yagona reestri axborot tizimiga kiritish orqali bolalar nafaqasi, moddiy yordam berish bo‘yicha ro‘yxatga olishning yangi mexanizmi joriy etildi. Bu axborot tizimi orqali ovoragarchiliklar, qog‘ozbozliklarning oldi olindi.

Mamlakatimizdaa ochiq siyosat yuritilib, ilk bor aholining kambag‘allik darajasi tan olindi. Aytish kerakki, bu muammoi yechish uchun muxtaram prezidentimiz tashabbusi bilan izchil tizimli islohotlar ko‘rilmoxda. Muhim jihat shundagi, ijtimoiy himoya bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimida ham institutsional o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, alohida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, shuningdek, Tibbiy- ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi, oilava xotin-qizlar davlat qo‘mitasi kabi ijtimoiy himoya tizimida maxsus alohida vakolatli davlat organlari tashkil etildi. Yana bir muhim masalani ayтиб o‘rish lozimki, nogironligi bo‘lgan shaxslarga jamiyat va davlat hayotida to‘laqonli ishtirok etish uchun keng va teng imkoniyatlar yaratildi. Davlatimizda nogironligi bo‘lgan qariyb 1 millionga yaqin shaxsning huquqlari bevosita ta’minalashga qaratilgan 35 ta normativ-huquqiy hujjat, jumladan, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonun amaliyatga yo‘naltirildi, BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasi ratifikatsiya qilindi.

Nuroniy va faxriyalarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash tizimi takomillashtirildi. O‘zbekistonda aholining qariyb 9 foizini keksalar tashkil etadi. Ularni moddiy qo‘llab-quvvatlash va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish uchun mahalla darajasida tizim yaratilmoqda. Mamlakatimizda 376 ta dablat ijtimoiy muassasasi, shundan 52 tasi kattalar ijtimoiy tashkiloti sifatida faoliyat yuritayotganini ta’kidlash lozim. Shu o‘rinda mamlakatimizda ijtimoiy siyosat borasidagi sa’y-harakatlar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohangligini ta’kidlash mumkin.

O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining asosiy va kuchli tomoni insonning barcha faoliyatini qamrab oluvchi turli dasturlarning keng doirasi mavjudligidir. Bugungi kunda islohotlar va o‘zgarishlar haqida soatlab gairish mumkin. Asosisi boshlangan keng qamrovli islohotlarni, erishilgan natijalarini yanada yuqori sur’atda davom ettirishdir. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Inson qadrini ulug‘lash, mehr va yordamga muhtoj aholini qo‘llab quvvatlash – mamlakatimiz ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishidir”. Bunda , eng avvalo, ushbu masalalarning konstitutsiyaviy asoslarini takomillashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega . Qolaversa, Taraqqiyot strategiyasining to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlanib, bevosita ijtimoiy himoya masalalariga qaratilgan.

Ijtimoiy davlat tushunchasi esa ayni shu loyihalarda o‘z aksini topadi. Bu aholi farovonligi va fuqarolar tengligini kafolatlaydi. Demak, yuqoridagi keltirib o‘tilgan ayrim raqamlar, ijtimoiy sohadagi islohotlar, ehtiyojmand aholining ujtimoiy muhofazasiga qaratilgan siyosat yurtimizda ijtimoiy davlatning poydevori yaratilganini ko‘rsatib turibdiki, O‘zbekiston de-fakto ijtimoiy davlat . endi uni de-yuro Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yishga yetarli darajada asoslar, faktlar, amaliy ishlar mavjud va bugun buning ayni vaqtidir.

Xo‘sh, ijtimoiy davlat bizga nima uchun kerak, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Mazkur tizimda boshqaruvning ustuvor mohiyatida iqtisod yoki siyosat emas, balki inson manfaati, uning qadri turadi. Byudjet taqsimotida kambag‘allarga yordam ta’milanadi. Bunday davlatning asosiy xususiyati biznesni qo‘llab-quvvatlash va kuchli iqtisodiyotni ta’minlash hisoblanadi. Sababi, biznes, ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida soliq tushumi hisobiga iqtisodiyot o‘sadi, byudjet mablag‘lari ko‘payadi. Bu tarmoqda yangi g‘oyalar amalga oshirilishiga va mablag‘ning ijtimoiy sohaga yo‘naltirilishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, bugun “ijtimoiy siyosat”, “ijtimoiy himoya”, “ijtimoiy kafolat” kabi tushunchalar mazmun-mohiyati avvalgidan ancha kengaydi. Bosh qonunimizdagи ijtimoiy huquqlarni kengaytirgan holda, ular qatorida bolalar mehnatiga yo‘l qo‘ymaslik, nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksa avlod vakillari, yoshlar, xotin-qizlar, migrantlar huquqlarini ishonchli himoya qilishga oid normalar o‘z ifodasini topishi maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 7-dekabrda O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag‘ishlangan tabrigida “Ayni vaqtida biz Konstitutsiyamiz normalarini hayotga to‘la tatbiq etish, jamiyatda qonun va adolat ustuvorligini, inson huquq va manfaatlari, uning qadr-qimmatini yanada samarali ta’minlash borasida hali ko‘p ish qilishimiz kerakligini yaxshi tasavvur qilamiz”, deb davlatimiz oldida turgan muhim vazifalar haqida to‘xtlib o‘tgan edi. Mazkur tabrikda “...hozirgi kunda O‘zbekiston ijtimoiy davlat va adolatli jamiyat qurish sari dadil bormoqda. Shu sababli “Yangi O‘zbekiston – ijtimoiy davlat”, degan tamoyilni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrashning vaqtি-soati yetdi”..., deb bayon etildi.

Ijtimoiy sohadagi yangiliklarni ham aytib o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026 -yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatlari ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2023- yil 28- fevraldagи PF-27-son farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, ijtimoiy himoya qilish tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etishini kengaytirish hamda kam ta’milangan oilalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish tartibini yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot

tizimi orqali kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga ijtimoiy nafaqalar tayinlash bo'yicha elektron shaklda ariza berishni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko'ra 2024-yil 1-apreldan boshlan kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash uchun onlayn ariza berish bo'yicha davlat xizmatnini ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Bu ham aholi uchun katta yengillik , chunki bunda inson omili aralasholmaydi.

Dunyoviy davlat qurishni ko'zlagan davlatimizning dinga munosabatini belgilovchi zikr etilgan konstitutsiyon mezonlardan quyidagi ikkita asosiy xulosa kelib chiqadi:

Birinchidan, O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik huquqiy va adolatli dunyoviy davlat qurish konsepsiyasida din – madaniy-ma'naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi barcha qadriyatlar qatorida teng huquqli qadriyat sifatida so'zsiz tan olinadi. Mamlakatda turli din vakillarining bag'rikenglik va tinch-totuvlikda yashashlari ta'minlanadi. Tabiiyki, jamiyatda turli tuman din va madaniyatlar vakillari mavjud bo'lgan holda, davlat boshqaruvi va siyosati albatta bir mafkuraga yoki diniy qarashga asoslana olmaydi. Bunday sharoitda O'zbekistonda eng adolatli va to'g'ri yo'l dunyoviy davlatchilik bo'lib, ushbu prinsip barcha dinlar hamda turli qarashlarni teng hurmat qilish, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, sof diniy ehtiyojlarni qondirishdan tashqarida bo'lgan har qanday g'arazga erishish yo'lida diniy omildan foydalanishga intilish qat'yan man etiladi. Boshqacha aytganda, dinni siyosiylashtirishga yo'l qo'yilmaydi, biroq ayni paytda diniy tashkilotlar va konfessiyalarning rivojlanishiga ko'mak ko'rsatiladi, ularning ichki ishlariga aralashilmaydi, dindorlarga diniy ehtiyojlarini qondirishlariga to'sqinlik qilinmaydi.

## Xulosa

"Yangi O'zbekistonning 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi" IV bobida " Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek , strategiyamimg 43 ta maqsadi bevosita har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasini ko'tarishga qaratilgan. Ayni vaqtida, davlatimizning ijtimoiy tabiatini, ijtimoiy vazifasi va faoliyatini tahlil etish hamda " huquqiy davlat ", kategoriyasi bilan bir qatorda "ijtimoiy davlat", fenomeni( hodisasi) ni ilmiy tadqiq va tahlil mavzusiga aylantirish muhim ilmiy, amaliy hamda metodologik ahamiyatga ega.

Yangilangan Konstitutsiyada O'zbekiston "ijtimoiy davlat" degan tamoyil muhrланib, davlatning bu sohadagi majburiyatları bilan bog'liq normalar 3 baravarga oshdi.

Bu raqamni aytish oson, lekin uni amalda ta'minlash uchun juda ko'p ishlashimiz zarur. Bunga davlat budgetidan har yili qo'shimcha 30-40 trillion so'm ajratish kerak bo'ladi. Buning hisobidan, har yili yuzlab yangi bog'chalar, maktab va shifoxonalar qurishimiz lozim.

Yoshlar siyosatini, ta'lim-tarbiya, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida yuqori bosqichga ko'tarish bo'yicha ham yangi imkoniyatlarni safarbar etamiz.

Nuroniyalar, yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan insonlar, alohida e'tiborga muhtoj aholi qatlamiga ijtimoiy xizmatlar ko'lamenti yanada kengaytiramiz. Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorini muntazam oshirib boramiz, – dedi Prezident. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya millatlar, konfessiyalar o'rtaida totuvlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida O'zbekistonning “**dunyoviy davlat**” sifatidagi maqomini ham mustahamladi. Xalqimiz referendumda buni ma'qulladi. Shu asosida, bundan buyon ham, mamlakatimizda millatlar, konfessiyalar o'rtaida totuvlik va xavfsizlikni ta'minlash siyosati jadal davom ettirilishi, jamiyatimizda har qanday radikallashuvga mutlaqo yo'l qo'yilmasligi ta'kidlandi.

## REFERENCES

1. G'ulom Mirzo “Ijtimoiy davlatning asl mohiyati – ijtimoiy adolatdir” nomli risolasi sayt nomi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markaz 20.02.2024 // <http://nhrc.uz/oz/news/m12519>
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. –Toshkent: “O'zbekiston”, 2022. – 440 bet.
3. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. –Toshkent: “O'zbekiston”, 2022. – 116-127-betlar.
4. A.Saidov. Konstitutsiyaviy islohotlar – saylovchilar xohish-irodasi, zamon talabi// "**Yangi O'zbekiston**" gazetasi, 2022 yil 24 may; <https://parliament.gov.uz>
5. “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 11.09.2023 yildagi PF-158-son //<https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston , 2023 // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
7. I.A. Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997-yil 43-44-betlar).
8. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonuni 01.05.1998 yildagi 618-I-son //<https://lex.uz/uz/docs/-65108>
9. Djumaev “O'zbekiston Respublikasi – dunyoviy davlat ” sayt nomi “Diplomatic Academy” Barcha huquqlar himoyalangan 25.03.2024 // <http://da-uwed.uz/uz/articles/ozbekiston-respublikasi-dunyoviy-davlat>

10. "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga ijtimoiy nafaqalar tayinlash bo'yicha elektron shaklda ariza berishni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 10.11.2023-yildagi 596-son//<https://lex.uz/uz/docs/-6663873>
11. Sh. M. Mirziyoyevning 2023-yil 8-maydagi Oliy Majlis palatalari a'zolari, siyosiy partiylar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi//  
<https://president.uz/oz/lists/view/6277>.